

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz www.hudud24.uz @hudud24official

ADLIYA TASHABBUSI



Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning 583 yilligi munosabati bilan Adliya vazirligi yana bir ma'rifiy tashabbusni boshlab berdi. Vazirlik tomonidan respublika bo'yicha tuman va shaharlardagi 4-sektorda joylashgan mahallalarda yoshlar uchun kutubxonalar tashkil etish loyihasiga start berildi.

Loyihadan ko'zlangan maqsad mamlakatimizda yoshlar orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ularda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni o'rnatish va intellektual salohiyatini oshirishga bo'lgan intilishni qo'llab-quvvatlashdir.

MAHALLALARDA YOSHLAR UCHUN KUTUBXONALAR TASHKIL QILINMOQDA

Aksiya doirasida Prezident asarlari, o'zbek adabiyoti durdonalari, jahon adabiyoti, huquqiy va bolalar adabiyotiga oid 100 turdan ortiq kitob to'plamlari mahallalarga yuborildi.

Xususan, adliya vaziri Akbar Toshqulov Sirdaryo viloyatiga xizmat safari davomida Yangiyer shahridagi "Navro'zobod" mahallasida kutubxona ochilishi tadbirida ishtirok etib, Adliya vazirligi jamoasi nomidan "Ziyo_ulash" chellenji doirasida mahallaga 500 dan ortiq kitoblar sovg'a qilindi. Tadbirda taniqli shoir va yozuvchilar, mahalla faollari va yoshlar ishtirok edi.




Kutubxonada aholi, ayniqsa, yoshlar bo'sh vaqtini unumli o'tkazishi uchun barcha sharoitlar yaratildi. Kitoblar bilan birga zamonaviy va qulay mebel jihozlari, kitob javonlari, kompyuter jamlanmalari taqdim etildi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun vazirlik tomonidan elektron kutubxona ham sovg'a qilindi. Unda barcha kitoblarning elektron va audio shakllari jamlangan.

Ushbu loyiha doirasidagi ishlar boshqa hududlarda ham davom ettiriladi.

O'z muxbirimiz



14-fevral – Zahiriddin Muhammad BOBUR tavallud topgan kun

Mangu haqiqatlar

Har kimki vafo qilsa vafo topqusidir,
Har kimki jaf o qilsa jaf o topqusidir,
Yaxshi kishi qomonlig' ko'rmagay hargiz,
Har kimki qomon bo'lsa jazo topqusidir!

Tole yo'g'i jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki aqladim – xatolig' bo'ldi,
O'z qerni qo'yib, Hind sori quzlandim,
Yo Rab, netaqin, ne quz qarolig' bo'ldi?

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.
Ko'nglim bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.



2 KO'ZGU



24 soat

ISHLASHGA RUXSAT BERILGANMI?

– Kafe, restoran, kompyuter klublari singari joylarga 24 soat ishlashga ruxsat berilganmi?

– Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi qaroriga ko'ra, umumiy ovqatlanish (kafe, restoran...) va ko'ngilochar (kompyuter klublari, bilyard, bouling, raqs maydonchalari) joylarda quyidagi talablarni bajargan holda 24 soat ishlashga ruxsat etilgan:

- ✓ "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi doirasida umumiy ovqatlanish va ko'ngilochar joylarning ichki qismiga, ya'ni xizmat xonalari, kirish va chiqish joylariga videonazoratni kamida 30 kun davomida saqlash imkoniyatini beruvchi video kamerasi tizimini o'rnatish;
- ✓ binolarning yon-atrofi, avtoturargoh va ularga tegishli boshqa hududlarni yetarli darajada (kamida 10 metr masofada) yoritish;
- ✓ binoda shovqinning ruxsat etiladigan me'yorlaridan kam bo'lmisligini ta'minlash, obyektlarni to'liq tovush o'tkazmaydigan etib jihazlash yoki tungi vaqtda musiqa va tovush kuchaytirgich asbob-uskunalaridan foydalanmaslik;
- ✓ yong'in o'chirish vositalari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar to'plami solingan tibbiy yordam qutichalari bilan ta'minlash;
- ✓ binoning barcha uchun ko'rinarli joylariga yong'in va boshqa favqulodda (tezkor) vaziyatlar yuz bergan taqdirda harakatlanish va fuqarolarni evakuatsiya qilish chizmasi hamda tezkor va qutqaruv xizmatlarining telefon raqamlari ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'rnatish.

Yuqoridagi talablarning bajarilgani haqida umumiy ovqatlanish va ko'ngilochar joylarning boshlig'i obyekt joylashgan joydagi ichki ishlar idorasiga ma'lumotnoma berib, 24 soat davomida ishlashi mumkin.

– Homiladorlik va tug'ish ta'tili davrida talabaga stipendiya to'lanadimi?

– Hukumatning 2020-yil 31-yanvardagi qaroriga muvofiq, homiladorlik va tug'ish ta'tili ("декретный отпуск") davrida talabaga stipendiya umumiy asoslarda to'liq miqdorda to'lanadi.

Ya'ni, talabaga stipendiya homiladorlik va tug'ish ta'tiliga qadar qancha miqdorda to'langan bo'lsa, ta'til vaqtida ham shuncha miqdorda to'lanadi. Bunda talabaning o'zlashtirishiga qarab hamma singari stipendiyasi miqdori o'zgaradi.

Shu jumladan, bola 2 yoshgacha bo'lgan davrda kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabaga ham stipendiya to'liq to'lanadi.

Lekin, talaba 2 yoshgacha bo'lgan bola parvarishi ta'tiliga chiqqanda stipendiyani to'lash to'xtatiladi. Bu davr uchun talaba agar kam ta'minlangan oila hisoblansa, bolalar nafaqasi olishi mumkin.

Nurya BERDINIYAZOVA,


Qorqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huquqiy axborot bo'yicha bosh maslahatchi

Ma'muriy huquq ommaviy huquq sohasiga kirgani bois ayni paytda uning doirasida "ommaviy manfaat", "jamoat manfaati", "jamoat huquqi" degan tushunchalarning dolzarbligi oshmoqda. Masalan, "jamoat manfaati" ko'pincha umumiy jamoaning manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yadigan qonunlarda ishlatiladigan, biroq noaniq huquqiy atama hisoblanadi. Chunki biror-bir normativ hujjatda uning ta'rifi keltirilmagan.

Jamoat manfaati talablari faqat huquqiy tartibga solishning mazmuni va maqsadini har tomonlama baholash doirasida belgilanishi mumkin.

"Ommaviy manfaat", "jamoat manfaati" tushunchasi Germaniya qonunchiligida mavjud. Germaniya Federativ Respublikasining asosiy qonuni 14-moddasida umumiy mulk majburiyati o'z aksini topgan. Shunga ko'ra, umumiy mulkdan foydalanish ham jamoat manfaati-ga xizmat qilishi kerak. Binobarin, musodara qilishga faqat keng jamoatchilik manfaati uchun ruxsat beriladi. Bu faqat qonun bilan yoki kompensatsiya turi va miqdorini tartibga soluvchi qonun asosida amalga oshirilishi mumkin.

NOANIQ HUQUQIY ATAMA uni qonunchilikka kiritish zarur



Shuningdek, Germaniya Qurilish kodeksida ham jamoa manfaati haqida so'z boradi. Ma'muriy sud kodeksining 80-moddasiga muvofiq, jamoat manfaatlaridan kelib chiqqan holda zudlik bilan ijro etish to'g'risidagi hujjatni to'xtatib turish mumkin emas. Ma'muriy huquqda jamoat manfaatlari muntazam ravishda himoyaga loyiq bo'lgan keng jamoatchilik manfaatlari bilan bog'lanadi. Masalan, maktab yonida kompyuter o'yingohi ochilishiga jamoa manfaati sababli ruxsat berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuning 59-moddasiga binoan, ma'muriy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirishga qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilganda, jamoat manfaatlariga tahdidlarning oldini olish maqsadida, ma'muriy hujjat

va qonunchilik hujjatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlashda hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ruxsat etiladi. Mazkur holatlarda qonun ma'muriy organga ma'muriy hujjatni qayta ko'rib chiqish masalasini hal qilishda ixtiyoriy huquq beradi. Ya'ni ma'muriy organ ma'muriy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirishni tanlashi mumkin. Yuqoridagi qonunning 54-moddasi talablariga muvofiq, ixtiyoriy vakolatlar berilgani sababli ma'muriy organ yangi ma'muriy hujjat bo'lgan o'z qarorini batafsil asoslab berishi kerak. Qonunchilik hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar ayrim hollarda ma'muriy hujjatning barqarorligini yoki o'z kuchini yo'qotmasligini hisobga olib, ma'muriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin. Lekin yuqorida Germaniya tajribasidan ko'rdikki, jamoat manfaatlari shaxsiy manfaatdan ustun turadi va bunday holatlarda ma'muriy hujjat o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi shart.

Amaliyotimizda ham Oliy ta'lim, maktab ta'limi muassasalari yonida elektron tamaki maxsusotlari sotilishiga ruxsat berilgan holatlarni ko'rishimiz mumkin. Bunda aynan jamoa manfaati tufayli o'sha ruxsatnomalar bekor qilinishi shart. Ammo amaldagi qonunchiligimizda bu huquq ixtiyoriy asosda amalga oshirilishini ko'rdik. Qonunchiligimizdagi bu ixtiyoriylik jamoat manfaatini hisobga olishda turli fikrlar qarama-qarshiligiga olib keladi. Shu maqsadda qonunchilikka aniq jamoa manfaati nima ekanligini kiritish lozim.

Yusuf SAIDAZIMOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi

AKSIYA DAVOM ETMOQDA

"HECH BIR SHAXS HUJJATSIZ QOLMAYDI"

Ayni kunlarda Adliya tizimida start olgan "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" aksiyasi huquqiy muammosi bo'lgan fuqarolarning mushkulini oson qilmoqda. Joriy yilning 20-yanvardan 20-martigacha bo'lib o'tadigan ushbu aksiya tug'ilish, o'limni qayd etish va ID-karta berish yuzasidan murojaatlar qabul qilishi, ro'yxatdan o'tkazilmagan tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan ko'chmas mulklarni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish yuzasidan aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan.

Asatullo Ernazarov Sayxunobod tumani, "Gulbuloq" mahallasida istiqomat qiladi. E'tiborsizligi sabab tug'ilganlik haqidagi guvohnomasini yo'qotib qo'ygan. Davlat xizmatlari markazi xodimlari tomonidan o'tkazilgan xatlov jarayonida aynan shu muammoni yechishda amaliy yordam so'ragan 60 yoshli A. Ernazarovning mushkuli oson bo'ldi. Sayxunobod tumani FHDY bo'limi tomonidan eksterritorial xizmat ko'rsatilib, takroriy guvohnoma rasmiylashtirildi.


Tumandagi "Turon" mahallasida yashovchi Mohira Boymurodova ham bir necha yillar avval tug'ilganlik haqidagi guvohnomasini yo'qotib qo'ygan. Shu vaqtda qadar ushbu hujjatga ehtiyoj sezmagani edi, hayotiy zarurat tufayli Mohira opa FHDY bo'limiga murojaat qilishga majbur bo'ldi. Tegishli hujjatlar o'rganilib, shu kunning o'zida, atigi 8-10 daqiqa vaqt oralig'ida fuqaroga takroriy guvohnoma rasmiylashtirib berildi.

Ma'lumot o'rni, huquqiy aksiya boshlanganidan buyon Sirdaryo viloyatida 148 nafar shaxsga tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi. Ularning 21 nafariga tug'ilganlik guvohnomasi, 17 nafariga yaqin qarindoshlarining o'limi qayd etilgan guvohnoma, 32 nafariga takroriy hujjat berildi.

Shuningdek, adliya bo'limlariga sud idoralarga ariza kiritish uchun 11 nafar uy sharoitida tug'ilgan bolalarga nisbatan to'plangan hujjatlar taqdim etildi, 32 nafar tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tkazildi, 15 nafar fuqaroning ko'chmas mulk obyektlari davlat ro'yxatidan o'tkazildi. 431 ta holatda aholi va tadbirkorlarga barcha turdagi sayyor davlat xizmatlari ko'rsatildi.

Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi
Axborot xizmati

Bosh qomusimizning 68-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir" deya belgilangan.



SUVNING HAM OXIRI BOR!

Dunyo miqyosida suv taqchiligi tufayli turli yuqumli va bedavo dardga chalinarotgan, hatto hayotdan erta ko'z yumayotgan insonlar oz emas. Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda dunyodagi eng qimmat suv AQShning Los-Anjeles shtatida bo'lib, 1 litr suv 90 dollarga teng. Suvsizlikdan aziyat chekayotgan davlatlar orasida 1-o'rinda Janubiy Afrika Respublikasi turadi.

Prezidentimizning 2022-yil 7-dekabrda "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham ayni masala doimiy diqqat-e'tibordan ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur qaror yer osti suv resurslarini muhofaza qilish, ularning kamayib ketishini oldini olish, jismoniy va yuridik shaxslarning suvga quduqlar burg'lash bilan bog'liq faoliyatini tartibga solish, shuningdek, suv hisobini yuritish mexanizmini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Qolaversa, yer osti suvlardan foydalanuvchilarga olinayotgan suvning aniq hisobini yuritish maqsadida o'z tasarrufidagi yer osti suv olish inshootlarini suv hisoblash vositalari bilan jihozlash majburiyatini yuklaydi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-dekabrda "Yer osti suvlariga quduqlarni burg'lash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Yer osti suv olish inshootlarini suv hisoblash vositalari bilan jihozlash tartibi to'g'risidagi nizom" ichimlik suvidan oqilona foydalanishda dasturialamal vazifasini o'taydi. Ushbu Nizomga ko'ra, suv olish inshootlari suvdan foydalanish maqsadidan qat'i nazar, suv isrofgarchiligiga yo'l qo'ymaslik uchun suv sarfini hisoblash vositalari bilan jihozlanishi shart. Jismoniy shaxslarning o'z shaxsiy va xo'jalik ehtiyojlari uchun yakka tartibda sutkasiga 5 metr kubgacha (5 ming litrgacha, bu 5 tonnani tashkil qiladi) suv olishi bundan mustasno. Suv hisobini yuritish

uchun faqat O'zbekistonda davlat reyestriga kiritilgan suv hisoblash vositalari o'rnatiladi. So'ng bir hafta mobaynida hududiy gidrogeologiya stansiyasi va tuman (shahar) soliq inspeksiyasi rasman xabardor qilinadi.

Suv olish inshootlaridan suv sarfini hisoblash vositalarisiz foydalanilganda olingan yer osti suvlari hajmi uning limitlaridan, suvni iste'mol qilishning texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda yashil daraxtzorlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi va qonunchilikka muvofiq soliq to'lovini undirish choralarini ko'riladi.

Bordi-yu, suv hisoblash vositasii ishdan chiqsa yoki qiyoslovdan o'tkazish uchun yechib olinsa, u hisobi so'nggi uch oyning o'rtacha ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi. Ammo bunday tartib bir oydan ortiq qo'llanilmaydi. Ya'ni suv hisoblash vositasini bir oydan ortiq muddatda qayta o'rnatmaslik suvdan foydalanish qoidalari-ning buzilishiga tenglashtiriladi. Binobarin, suv hisoblash vositalari har 4 yilda qiyoslovdan o'tkazilishi lozim.

Afsuski, so'nggi yillarda mamlakatimizda suvdan oqilona foydalanish, uni isrof qilmay, qadriga yetish anchagina oqsagandek. Ba'zan xonadonlarda, ko'cha-ko'ya ichimlik suvining behudaga oqib yotganini ko'rib yuraging achishadi. Ko'pchilik esa "menga nima" qabilida ish tutadi. Biroq bu loqaydliklarimiz ertaga qimmatga tushishini xayolimizga ham keltirmaymiz.

Xulosa o'rnida aytganda, toza ichimlik suvini behuda nobud qilayotgan shaxslarga nisbatan keskin chora ko'rish vaqti allaqachon yetgan. Chunki har bir narsaning hisob-kitobi, cheki- chegarasi bor. Ichimlik suvi ham bitmas-tuganmas xazina emas. Zero, dono xalqimizning "Nimani xor qilsang, shunga zor bo'lasan", degan naqli bejiz aytilmagan.

Baxtiyor QO'SHBOQOV,
Sirdaryo tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti

Ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 3 soat yoki undan ko'proq vaqt o'tkazadigan bolalarning taxminan 27 foizi ruhiy kasallik alomatlaridan aziyat chekadi. Erkaklarning ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi (66,4 foiz) ayollar (33,6 foiz)ga qaraganda ko'proq. 60 yoshdan oshgan odamlarda bunday qaramlik kamroq. Ijtimoiy tarmoqlardan haddan ziyod ko'p foydalanuvchilar bu – ish izlovchilar bo'lsa, ulardan keyin talabalardir.

IJTIMOY TARMOQLARGA QARAMLIK

SALBIY HOLATLARNI KELTIRIB CHIQRISHI MUMKIN



Ijtimoiy tarmoqlarga kirish cheklan-gudek bo'lsa, o'zini yolg'iz his qilish, ularda yuz berayotgan voqea va hodisalarni doimiy ravishda o'ylab yurish, xavotirda bo'lish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni stress va boshqa ko'ngilsizliklarga yechim deb bilish, o'zini o'zi idora qila olmaslik va psixologik jihatdan tobelik, haddan tashqari ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflash, hatto undan foydalanmasa, boshqa faoliyatidan (masalan, oila yoki sevimli mashg'ulotlaridan) voz kechish ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning asosiy alomatlarini sanaladi.

Mutaxassislar fikricha, mobil ilovalarga qaramlik, muayyan maqsad bo'lmasa-da, ilova va platformalardan foydalanishga uzoq vaqt sarflash, turli izohlar olishga o'rganib qolish, o'z-o'zini reklama qilish, ya'ni o'zgalarning e'tibor va e'tirofini qozonish uchun shaxsiy ma'lumotlari hamda fotosuratlarini joylashtirish, dunyo yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib turish ehtiyojining haddan tashqari ortiqchiligi ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning keng tarqalgan omillaridir.

Dunyo amaliyotiga nazar tashlasak, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik rasman kasallik sifatida e'tirof etilmagan. Ba'zi mamlakatlarda shunchaki "Internetdan maqsadsiz foydalanish" deb qaraladi. "Internetga qaramlik" tushunchasi ilk bor 1990-yillarda internetning yaratilishi natijasida amerikalik psixiatr Ivan K. Goldberg tomonidan ishlatilgan. Biroq uni statistik qo'llanmalarga ruhiy kasalliklar obyekti sifatida kiritish yoki kiritmaslik masalasi hali-hanuz ochiqchiliga qolmoqda.

Ijtimoiy media platformalariga qaramlik miyaga giyohvand moddalar va alkohol kabi ta'sir qiladi. Amerikalik pediatrlarning fikricha, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik o'smirlar va bolalarning ruhiy salomatligiga xavf tug'diruvchi asosiy faktorlardandir.

Britaniyadagi Nottingham Trent universiteti professorlari "Talabalarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik sindromining mavjudligi to'g'risida asoslar yetarli. Boisi, "Facebook", "Instagram", "Telegram" kabi ijtimoiy tarmoqlarda asosiy vaqtini o'tkazuvchi talabalarda shaxsiy hayotdan qochish, barcha diqqat-e'tiborini o'zlariga foydalanayotgan ijtimoiy tarmoqlarga

qaratish, reallikdan yiroqlashish, kayfiyatning tushishi va boshqa bir qancha qaramlikning belgilari kuzatiladi" degan xulosaga kelishgan. Bundan tashqari, olimlar xuruj sindromi ham mavjudligini ta'kidlashadi.

Ijtimoiy tarmoqlar yakkalanishga ham olib keladi. Agar inson kuniga 9 soatdan ko'proq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazsa, u "ijtimoiy tarmoqlarga qaram" sifatida qabul qilinadi.

Ijtimoiy media platformalaridan goh-gohida, hatto har kuni foydalanishning zarari yo'q. Ammo unga qancha ko'p vaqt sarflansa, salbiy tomonlarni boshdan kechirish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik o'ziga bo'lgan hurmat va ishonchning kamayishi, bezovtaliq, xulq-atvorning buzilishi (g'azab, umidsizlik va boshqalar bilan bog'liq), tana dismorfiyasi, taomlanish rejimi, moddalar almashinuvi hamda uyquning buzilishi, o'z-o'ziga zarar yetkazish, o'z joniga qasd qilish ko'rsatkichining oshishi singari qator ruhiy kasallik va jismoniy zo'riqlashlarni keltirib chiqarishi mumkin.

AQSh senatori Josh Xoulingning ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning salbiy muammolarini hal qilish uchun "Ijtimoiy media-ga qaramlikni kamaytirish texnologiyasi (SMART) to'g'risida"gi qonun loyihasini taklif etadi. Senatning maqsadi foydalanuvchilarni ijtimoiy media mahsulotlari bilan doimiy aloqada bo'lishdan qaytarishdir.

Tahlil etilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda ham ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni oldini olishga qaratilgan bir qator takliflarni qo'llashni ilgari surish lozim deb hisoblaymiz.

Avvalo, AQSh senatori taklif etgan qonun loyihasiga o'xshash qonunni ishlab chiqish lozim. Qolaversa, ta'lim muassasalari dasturiga internetdan foydalanish madaniyatiga oid o'quv fanini kiritish o'rinni. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda, reklama roliklarida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning salbiy jihatlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar tarqatilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Aziza SMAYLOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tuturi

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA



BANKLAR PLASTIK KARTADAN TO'G'RIDAN-TO'G'RI PUL YECHISHGA HAQLIMI?

– Oilaviy bolalar bog'chalarining soliq to'lash tartibi qanday?

– Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yakka tartibdagi tadbirkor sifatida soliq to'laydi, agar yillik daromadi 100 milliondan oshmasa, Soliq kodeksiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq to'lanadi.

– Direktorlar menejerlik sertifikatini ololmagan taqdirda lavozimidan ozod qilinadimi?

– Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 38-bandiga ko'ra, belgilangan ballni to'play olmagan nomzodlar bir yil ichida navbatdagi bitta yakuniy sinovlarda to'lov undirilgan holda ishtirok etish huquqiga ega. Ikkinchi marta ham yakuniy sinovlarda belgilangan ballni to'play olmagani qayta o'quv kursida o'qiganidan so'ng yakuniy sinovlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Direktorlar yakuniy sinovlarda belgilangan ballni to'play olmagan taqdirda o'rnatilgan tartibda lavozimidan ozod etiladi.

– Ishdan bo'shayotgan xodimga qanday to'lovlar to'lab berilishi kerak?

– Mehnat kodeksining 172-moddasiga muvofiq mehnat shartnomasi bekor qilindanda ish beruvchi tomonidan xodimga oxirigacha olinmagan ish haqi, xodim tomonidan foydalanilmagan barcha asosiy va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalarni, agar mehnat to'g'risidagi qonunchilikda yoki mehnatga oid boshqa huquqiy hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida boshqa to'lovlarni to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu to'lovlarning to'lanishi belgilangan.

– Banklarning kreditni undirish uchun plastik kartadan to'g'ridan-to'g'ri pul yechishga haqqi bormi?

– Mehnat kodeksining 271-moddasida xodimning xohishiga ko'ra, ish haqi yoki uning muayyan qismi xodimning yozma arizasida ko'rsatilgan miqdorda va muddatlarda kreditorga bank muassasalaridan olingan ssudalar, kreditlar, kommunal to'lovlar va boshqa xarajatlarni to'lash uchun agar siz bank kredit shartnomasida to'g'ridan-to'g'ri plastik kartangizdan pul yechishga ruxsat bergan bo'lsangiz, bank sizning kartangizdan pul yechishga haqli.

Olimjon KOMILOV,

Navoiy shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

Yunusobod tuman adliya bo'limiga fuqaro M. Orziqulova murojaat qilib, tumandagi 64-sonli oilaviy poliklinikada oilaviy shifokor lavozimida faoliyat yuritishi hamda yosh, salohiyatli shifokor bo'lishiga qaramasdan unga tegishli ustama puli to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, amaliy yordam so'ragan.

SHIFOKORGA USTAMA TO'LANMAGAN

Murojaat adliya bo'limi tomonidan o'rganilganda, M. Orziqulova haqiqatan ham Toshkent davlat pediatriya tibbiyot institutini 2022-yilda tamomlagani, Prezidentimizning 2022-yil 17-maydagi "Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonning 2-bandiga asosan 2022-yil 1-iyundan boshlab yangi ish boshlagan salohiyatli yosh shifokorlarga 1 million so'mgacha maxsus oylik ustama belgilangani aniqlandi.

O'rganish natijasiga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan fuqaro M. Orziqulova manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, ustama puli undirib berildi. Qonunbuzilishiga yo'l qo'ygan tashkilot rahbari qonunchilikda belgilangan tartibda ma'muriy jarimaga tortildi.

Otabek NEGMATOV,

Yunusobod tuman adliya bo'limi boshlig'i



– 2 yil oldin bir qizga unashtirildim. Kattalar tavsiyasi bilan vaqtlitiroq qonuniy nikohdan ham o'tdik. Ammo unga uylanmadim, to'y ham bo'lmadi. Endi boshqa qizga uylanmoqchiman. 2 yil oldin qayd qilingan nikohdan ajralish uchun qayerga murojaat qilishim kerak? U qiz bilan yashamagan bo'lsam ham, bu ikkinchi nikoh sifatida rasmiylashtiriladimi?

(Ismi sir tutildi)

NIKOH DAN O'TDIK, AMMO TO'Y BO'LMADI...



– Oila kodeksining 218-moddasiga binoan, siz FHDY organiga mazkur masalada ikkinchi tomon bilan birgalikda shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat bilan murojaat qilishingiz mumkin. Bunda er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda, nikohdan ajralishda ariza beruvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga bergan arizalarida o'rtada voyaga yetmagan bolalari va mulkiy nizolari yo'qligini tasdiqlashi shart.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilarning doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joydan qat'i nazar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi. Garchi birga yashamagan bo'lsangiz-da, avval qonuniy nikohdan o'tganligingiz bois, keyingi nikohingiz ikkinchi nikoh sifatida qayd etiladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari er-xotinini yarashtirish bo'yicha tegishli choralari ko'rish uchun er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasi, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini ariza berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qiladi.

Mulkiy nizolar yoki o'rtada voyaga yetmagan farzandlar bo'lgan holatlarda ajrim sud tartibida hal etiladi. Ikki tomon sud qarori chiqqach FHDY bo'limiga murojaat qilib, ajrim guvohnomasi olishi zarur. Sud qarori chiqqanidan so'ng ajrim guvohnomasi olinmagan taqdirda bu qaror qonuniy kuchga ega bo'lmaydi.

Savolga Samarqand shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi xodimi Madina QURBONOVA
javob berdi



KIM HAQQ?



– Tuman irrigatsiya bo'limiga ishga taklif qilishdi. Safardaligim sababli 3-4 kundan keyin bordim. Biroq boshqa xodimni ishga olib qo'ydik, deya menga rad javobini berishdi. Qonunchilik bo'yicha bu o'rinda kim haqli?

E. SUNNATOV

– Mehnat kodeksining 101-moddasiga ko'ra (taklif etilgan shaxslarga ishga joylashtirish sohasidagi qo'shimcha kafolatlar), bosharti ish beruvchi ishga joylashtirish to'g'risidagi taklif bilan jismoniy shaxsga taklifnoma yuborgan bo'lsa, ish beruvchi taklifnomaning amal qilish muddati davomida, agar taklifnomada muddat shartlashilmagan bo'lsa, taklifnoma yuborilgan kundan e'tiboran 1 oy ichida ushbu shaxsni ishga qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Taklifnoma deganda ish beruvchining ushbu jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasini tuzish uchun to'g'ridan-to'g'ri, aniq ifodalangan rozilik bildirishi tushuniladi. Taklifnoma ish beruvchining tegishli vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan yozma yoki elektron shaklda yuborilishi mumkin. Ushbu modda birinchi qismining qoidalari xodim qonunchilikda nazarda tutilgan barcha zarur tartib-taomillardan o'tgan taqdirda chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. Demak, agar ish beruvchi sizga yozma yoki elektron shaklda taklifnoma yuborgan bo'lsa, taklifnomada masalan, 2 oylik muddat ko'rsatilgan bo'lsa, 2 oy ichida, agar muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, sizni taklifnoma yuborilgan kundan e'tiboran 1 oy ichida ishga qabul qilishi shart.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 119-moddasiga ko'ra, ish beruvchi tomonidan ishga taklif etilgan shaxslarni ishga qabul qilmaslik ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etish deb hisoblanadi.

Mehnat kodeksining 220-moddasiga ko'ra, agar xodim ish beruvchining taklifiga ko'ra ishga qabul qilingan bo'lsa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tilini olish huquqini beruvchi ish stajiga boshqa ish beruvchidagi ish staji ham kiritiladi.

Ilyos ISMATOV,
G'ijduvon tuman FHDY bo'limi 1-toifali inspektori



MUROJAAT EGASI "TEMIR DAFTAR"GA KIRITILDI

Tadbirkorlik faoliyatini boshlamochi bo'lgan fuqaro K. Sobirov ijtimoiy ahvoli og'ir ekaniga qaramasdan "Temir daftar"ga kiritilmayotganidan norozi bo'lib, Yunusobod tuman adliya bo'limiga murojaat qildi. Murojaatni o'rganish chog'ida K. Sobirov Yunusobod tumandagi 14-yotoqxonada yashab kelayotgani va tadbirkorlik bilan shug'ullanish niyatida ekani ma'lum bo'ldi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan "Temir daftar"ni yuritish orqali ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha" vaqtinchalik tartibga ko'ra, "Temir daftar"ga ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan a'zolari bor oilalar, kam ta'minlangan yakka-yolg'izlar va keksalar, boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand oilalar, ko'p (4 va undan ortiq) bolali moddiy ko'makka muhtoj oilalar, mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari bor ehtiyojmand oilalar, tibbiy yordamga muhtoj oilalar (surunkali yoki og'ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalingan va nogironlik guruhi belgilanmagan a'zolari bor, yetarli daromad manbaiga ega bo'lmagan oilalar) hamda noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy bo'lmagan oilalar kiritilishi mumkin.

Shuningdek, qarorga asosan "Temir daftar"ga kiritilgan fuqarolarga bandlikni ta'minlash, tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko'maklashish, tadbirkorlikka jalb qilish, moddiy yordam hamda tibbiy xizmat ko'rsatish va boshqa shu turdagi yordamlar ko'rsatilishi belgilangan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan K. Sobirovga yuridik yordam ko'rsatildi hamda Yunusobod tuman hokimining tegishli qaroriga asosan "Temir daftar"ga kiritildi.

Oybek SATTOROV,

Yunusobod tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi



Ikki hissa haq to'lanadimi?

– Bir necha yildan bo'yon hamshira bo'lib ishlayman. Ishim yiliga 4-5 marta bayram kunlariga to'g'ri keladi. Ishlanmaydigan bayram kunlarida ishlagan xodimlarga ikki hissa haq to'lanishi lozimligi to'g'risida eshitdim. Shu rostmi?

Nasiba SHODIYEVA



– Mehnat kodeksining 263-moddasiga ko'ra, dam olish kunlaridagi yoki ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlagan ishlari uchun xodimlarga:

- ✓ korxonaga yoki tashkilot o'zlarining ishbay ishlavchilariga – kamida ikki hissali ishbay baholar bo'yicha;
- ✓ mehnatiga kunbay va soatbay tarif stavkalari bo'yicha haq to'lanadigan xodimlarga – kunbay yoki soatbay tarif stavkasining kamida ikki hissasi miqdorida;
- ✓ maosh oladigan xodimlarga – har bir ishlangan kun yoki soat uchun maoshdan tashqari kunbay yoki soatbay stavkasining kamida bir hissasi miqdorida haq to'lashi lozim.

Jamoa shartnomasida ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra, qabul qilingan ichki hujjatda, mehnat shartnomasida dam olish kunlaridagi yoki ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ish uchun qo'shimcha to'lovlarning yuqoriroq miqdorlari nazarda tutilishi mumkin.

Dam olish kunidagi yoki ishlanmaydigan bayram kunidagi ish xodimning xohishiga ko'ra boshqa dam olish kunini berish bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Dam olish kunidagi yoki ishlanmaydigan bayram kunidagi ish boshqa dam olish kunini berish bilan kompensatsiya qilingan taqdirda, bunday ish uchun haq to'lash kamida bir hissa miqdorida amalga oshiriladi, dam olish kuni uchun esa haq to'lanmaydi.

Agar xodim jadvalga yoki mehnat shartnomasiga muvofiq umumiy belgilangan dam olish kunlarida (besh kunlik ish haftasida shanba yoki yakshanba kunlari yoki olti kunlik ish haftasida yakshanba kuni) mehnat qilgan bo'lsa, dam olish kunlari esa unga ish haftasining boshqa kunlarida berilgan bo'lsa, umumiy belgilangan dam olish kunlaridagi ish uchun bir hissa miqdorida haq to'lanadi.

Ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ish uchun, ushbu ish jadvalga binoan amalga oshirilganidan yoki xodim mazkur kodeksning 210-moddasiga muvofiq ishlanmaydigan bayram kuni ishga jalb etilganidan qat'i nazar, kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanadi yoxud xodimning xohishiga ko'ra boshqa dam olish kunini berish va bir hissa miqdorida haq to'lash orqali kompensatsiya qilinadi.

Savolga Sariosiyo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Najmiddin ESHMURZAYEV javob berdi

To'rtko'l tuman adliya bo'limiga fuqaro T.A. murojaat qilib, davlat kadastr organi tomonidan davlat xizmatlari o'z muddatida ko'rsatilmayotganidan noroziligini bildirdi.



Davlat kadastrlar palatasi xodimi JARIMAGA TORTILDI

Mazkur murojaat tuman adliya bo'limi xodimlari tomonidan joyiga chiqib o'rganilganda, fuqaro T.A. ning o'z turar joyining kadastr pasportini shakllantirish va ularga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari markazi orqali bergan arizasi tuman davlat kadastrlar palatasi tomonidan o'rnatilgan muddatda ko'rib chiqilmaganini aniqlandi.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan "Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'majildini tayyorlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 8-bandida "Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari tomonidan kadastr yig'majildini tayyorlash va uning natijasi bo'yicha kadastr pasportini taqdim etish kadastr obyektlarining murakkabligiga qarab a) ko'chmas mulk obyektlarining turar joyga oid qismi bo'yicha:

- ko'p kvartirali uydagi kvartira – 3 ish kunigacha;
- yakka tartibdagi turar joy – 5 ish kunigacha deb belgilangan.

Mazkur qaror talablari buzilgani sababli, davlat kadastrlar palatasi To'rtko'l tuman filiali muhandisi D.K.ga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215⁹-moddasi birinchi qismiga ko'ra, 1 million 20 ming so'm miqdorida jarima jazosi qo'llanildi va fuqaro T.A.ning turar joyiga kadastr pasportini shakllantirish bo'yicha huquqi tiklandi.

Nasiba ABDURAXMANOVA,

To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



Bugungi kunda biror sohani zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalarining yaratilishi imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Afsuski, bu imkoniyatlardan ko'pchilik haligacha foydalanishni bilmaydi. Aholi uyda o'tirgan holda ko'plab huquqiy masalalarni hal etish imkoniyati yaratilgan bir davrda ko'plab ovoragarchiliklarga duch kelmoqda.

UYDA O'TIRIB GUVOHNONA OLISH MUMKIN

Masalan, oilaga yangi mehmon, ya'ni chaqaloq dunyoga kelsa, tug'ilganlik haqida guvohnoma olish uchun darrov FHDY bo'limiga yugurishga o'rganganmiz. Vaholanki, mazkur guvohnomani uyingizgacha yetkazib berish tartibi joriy etilgan.

Tug'ilganlik haqidagi guvohnomani uydan turib YIDXP (my.gov.uz) orqali olishingiz mumkin. Endi avvalgidek, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga bormaysiz, navbat kutib ovora bo'lmaysiz, bir-necha hujjatlarga imzo ham qo'ymaysiz. Buning uchun (my.gov.uz) orqali buyurtma bersangiz kifoya. Buyurtmada: farzandingizga tegishli ma'lumotlar to'ldiriladi hamda tug'ilganlik haqidagi guvohnomani yetkazib beriladigan manzil ko'rsatiladi, so'nggi qadamda invoys shakllanadi va BHMning 15 foizi (45 ming 900 so'm) miqdorida hamda pochta xizmati uchun 25 ming so'm to'lov amalga oshiriladi. FHDY xodimi kelib tushgan buyurtmani ko'rib chiqib, chop etilgan tug'ilganlik haqidagi guvohnomani pochta xizmatiga taqdim etadi. Qarab-sizki, guvohnoma pochta xizmati tomonidan uyingizgacha yetkazib beriladi.

Maftuna G'AFFOROVA,

Sariosiyo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

6 JARAYON

Fuqarolarning sud orqali himoyalashtirilgan bo'lgan huquqlarini amalga oshirishlari uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish, da'vo arizalari va shikoyatlarni qabul qilish hamda ularni ko'rib chiqish borasidagi dastlabki jarayonlarni yanada soddalashtirish maqsadida fuqarolik ishlarini sudda ko'rish va hal qilishning birmuncha soddalashtirilgan tartibi "Buyruq tartibida ish yuritish" joriy etilishi bo'ldi.

ARGUMENTLAR

Fuqarolik sudlarida keng qo'llanayotgan sud buyrug'i berilgan arizani sudya tomonidan sud muhokamasiz, kreditor va qarzdorni chaqirtirmasdan, ularning tushuntirishlarini eshitmasdan yakka tartibda qabul qilinadigan sud hujjatidir.

Sud buyrug'i ishni sudda muhokama qilish bilan bog'liq bo'lmagan birinchi instansiya sudi qarorining alohida turi bo'lib, Fuqarolik protsessual kodeksining 171-moddasida ko'rsatilgan talablar bo'yicha chiqariladi va bevosita ijro hujjati kuchiga egadir.

Buyruq tartibida ish yuritish manfaatdor shaxs – qarz undiruvchining tashabbusi bilan boshlanadi. Talab kimga nisbatan qaratilgan bo'lsa, u qarzdor deb e'tirof etiladi.

Sud buyrug'i quyidagi hollarda beriladi, agar:

- 1) talab notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan bo'lsa;
- 2) talab yozma bitimga asoslangan va qarzdor tomonidan tan olingan bo'lsa;
- 3) kommunal xizmatlar yoki aloqa xizmatlari to'lovi bo'yicha qarzdorlikni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;
- 4) voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to'g'risidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog'liq bo'lmagan talab arz qilingan bo'lsa;
- 5) hisoblangan, lekin xodimga to'lanmagan ish haqini va unga tenglashtirilgan to'lovlarni undirish haqida talab arz qilingan bo'lsa;
- 6) fuqarolardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;
- 7) ijara shartnomasida belgilangan ijara to'lovlari muddatida to'lanmaganligi sababli ushbu to'lovlarni undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;
- 8) ko'p kvartirali uyning joylari mulkdorlaridan majburiy badallar va to'lovlarni undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;
- 9) yozma bitim mavjud bo'lgan taqdirda, undiruvchi qarzdorning majburiyatlarini bajarilishining ta'minoti bo'lgan ko'char mol-mulkka qaratish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa.

Demak, fuqarolik ishlarini bo'yicha sud buyruqlari qonunchilikda belgilangan qat'iy qoidalar asosida, faqat mulkiy tusdagi talablar yuzasidangi-

Butun dunyoda fuqarolar va tashkilotlar o'zlarining buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishni afzal ko'radilar. Biroq nizolarni sud orqali himoya qilish muayyan xarajatlarni va muddatlarni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Qolaversa, sudlarga kelib tushayotgan ishlar hajmining ortib borishi sudyalarning ish yuklamasining ko'payishiga sabab bo'layotgan omillardan biridir. Bu esa sud tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.



Sud buyrug'i bekor qilingan taqdirda undiruvchining takroran sudga murojaat qilish huquqi cheklanmaydi, balki undiruvchi bildirgan talab bilan da'vo ishini yuritish tartibida da'vo ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli bo'ladi. Sud buyrug'i faqatgina qarzdorning e'tirozi asosida emas, balki undiruvchining arizasiga ko'ra ham bekor qilinishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, sud buyrug'i instituti Toshkent shahar fuqarolik ishlarini bo'yicha sudlari tomonidan keng qo'llanilmoqda.

RAQAMLAR SHARHI

Xususan, shahar sudlari tomonidan o'tgan 2023-yil davomida 536.4 mlrd so'mlik 93 ming 538 ta ariza sud buyrug'i tartibida hal qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilga (40 ming 743 ta) nisbatan 52 ming 795 ta (yoki 130 foiz)ga ko'paygan.

Shuningdek, 2023-yilda chiqarilgan sud buyruqlari (93 ming 538 ta) Fuqarolik protsessual kodeksining 171-moddasida ko'rsatilgan talablar kesimi bo'yicha tahlil qilinganda, 398.1 mlrd so'mlik 58 ming 152 tasi (62.2 foizi) yozma bitimga asoslangan va qarzdor tomonidan tan olingan talablar, 34.7 mlrd so'mlik 17 ming 252 tasi (18.4 foizi) kommunal xizmatlar bo'yicha qarzdorlikni undirish (shundan 21.3 mlrd so'mlik 10 ming 510 tasi tabiiy gaz va 696.9 mln so'mlik 295 tasi elektr ta'minoti bo'yicha hisoblangan qarzdorlik), 13.6 mlrd so'mlik 6 ming 57 tasi (6.5 foizi) xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari a'zolaridan to'lovlarni undirish, 58.6 mlrd so'mlik 5 ming 906 tasi (6.3 foizi) soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish, 5 ming 49 tasi (5.4 foizi) voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun aliment undirish, 31.4 mlrd so'mlik 1 ming 121 tasi (1.2 foizi) hisoblangan, biroq xodimga to'lanmagan ish haqini undirish haqidagi talablarni tashkil etgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, poytaxt sudlarida sud buyrug'i tartibida ish yuritish jismoniy va yuridik shaxslarning nizoli bo'lmagan fuqarolik munosabatlarini ortiqcha sansalorliklarsiz tartibga solish imkoniyatini yaratib kelmoqda.

Bobir ISLAMOV,

Toshkent shahar sudi raisi o'rinbosari, fuqarolik ishlarini bo'yicha sudlov hay'ati raisi

SUD BUYRUG'I

sud muhokamasiz, tomonlarning ishtirokisiz qabul qilinadigan sud hujjatidir

na chiqariladi. Mulkiy tusda bo'lmagan yoki ko'chmas mol-mulkni undirishga qaratilgan talablar yuzasidan sud buyruqlari chiqarilishiga qonun yo'l qo'ymaydi.

“

Sud buyrug'i chiqarish haqidagi talab Fuqarolik protsessual kodeksining 33-moddasida belgilangan sudlovga taalluqlilikning umumiy qoidalariga amal qilingan holda sudga beriladi. Voyaga yetmagan farzandning ta'minoti uchun aliment undirish haqidagi talab undiruvchi yashayotgan joydagi sudga, ijro qilish joyi ko'rsatilgan notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan talab ushbu talab bajarilishi lozim bo'lgan joydagi sudga taqdim qilinishi ham mumkin.

Sud buyrug'i chiqarish to'g'risidagi ariza yozma shaklda va axborot tizimi orqali elektron hujjat shaklida beriladi.

“

Fuqarolik protsessual kodeksining 177-moddasiga asosan, arz qilingan talabning mazmuni bo'yicha sud buyrug'i ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran uch kun ichida sudya tomonidan beriladi. Sud buyrug'i berilganidan keyin sud uning ko'chirma nusxasini darhol qarzdorga yuboradi.

Sud buyrug'i sudyaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin. U berilgandan so'ng o'n kunlik muddat o'tgach qonuniy kuchga kiradi.

Qarzdor arz qilingan talabga qarshi e'tirozlarini buyruqni bergan sudga sud buyrug'ining ko'chirma nusxasini olgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda yuborishga haqli. Bunday holda sudya sud buyrug'ini bekor qilib, bu haqda ajrim chiqaradi. Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrimda sudya undiruvchi bildirgan talab da'vo ishini yuritish tartibida taqdim etilishi mumkinligini tushuntiradi.



Sud buyrug'iga nisbatan e'tiroz bildirish uchun qonunda belgilangan o'n kunlik muddatning qarzdor tomonidan o'tkazib yuborilgani sud tomonidan uzrlil deb topilgan taqdirda, sud uning iltimosnomasiga asosan ushbu muddatni tiklashi mumkin. Muddatni tiklash haqida iltimosnoma bilan murojaat qilinmasdan turib, muddat o'tkazilgandan so'ng berilgan e'tirozlar sud tomonidan ko'rilmaydi va muallifga qaytariladi.

**Mo'jiza emasdir falakda o'tob,
Mo'jiza aslida beminnat kitob.**

Mazkur baytni bitganida Jaloliddin Rumiy hazratlari naqadar haq edi. Chunki aynan kitobgina sizni bizning beminnat do'stimiz, maslakdoshimiz va komillikka eltuvchi yo'l boshchimiz bo'la oladi. Bu hayotiy haqiqatni farzandlarimiz ongiga chuqurroq singdirishimiz, bolaligidanoq ularni kitobga oshno qilib tarbiyalashimiz lozim.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz yoshlarini kitobxonlikka jalb qilishda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan axborot-kutubxonalarining o'рни beqiyos. O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 13-aprelda qabul qilingan "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi qonuniga binoan, foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash, ularning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko'maklashish, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini saqlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlash axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalaridir. Shu bilan birga, sohada tegishli oliy ma'lumotga ega, zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lgan, o'z kasbini sevadigan mutaxassisgina, atrofiga haqiqiy kitobxonlarlarni to'play oladi. Bunday mutaxassis kitobxonlarning adabiyotlardan oqilona foydalanishini, axborot-kutubxona fondini ijtimoiy-intellektual mulk sifatida saqlanishini ta'minlaydi.

**"ILM OLMAGAN,
KITOB O'QIMAGAN FARZANDLAR
YO'QOTILGAN BOLALARDIR"**

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi faroyimiy o'tgan 7 yil mobaynida kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini yanada rivojlantirish barobarida, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yanigilani, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari yaratilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yoshlarni kitobxonlikka jalb qilishda oilaviy muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Ilm olmagan, kitob o'qimagan farzandlar yo'qotilgan bolalardir, degan edi mutafakkirlardan biri. Albatta, kitob tanlay olish, uni qanday o'qishni bilish, o'qiganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish, kerakli ma'lumotlarni qayerdan, qanday, qaysi vositalardan foydalanib topish, olingan bilimni yoki xabarni qanday yetkazib berish, qayta o'qish – kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, kutubxona kataloglari bilan ishlay bilish, kitobni tez va sekin o'qishni farqlay olish, kitobni o'qib,

uning fusunkor olamiga kira bilish hammaga ham nasib etmaydigan iqtidordir.

Ayni paytda biz – soha vakillari oldida turgan eng dolzarb vazifa kitobxonlikni yanada kengroq targ'ib qilish va yoshlarimizning mutolaaga muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini oshirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishdir. Shu ma'noda aytganda, yurtimizda kitoblar nashri bilan bir qatorda, ularning savdosi va targ'ibotiga qaratilgan ta'sirchan amaliy qadamlar ham qo'yilayotgani e'tirofqa mo'lik. Bugungi kunda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'z davki-tobsavdota'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan "Kitob olami" majmuasiga qarashli zamonaviy kitob do'konlari nafaqat Toshkent shahrida, balki Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarida ham ishlab turibdi. Shunday ekan, internet va boshqa ijtimoiy tarmoqlar jadal rivojlanayotganiga qaramay, insonning ong va tafakkurini charxlash, ma'naviy olamini boyitish, ezgulikni targ'ib etishda bosma kitobning o'rnini bundan keyin ham saqlanib qolaveradi.

Nasiba ISXAKOVA,
TDYU axborot-resurs markazi
direktori o'rinbosari

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi keng ko'lamlilik kurash olib borilmoqda. Bu esa Prezidentimiz tomonidan Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borilayotgan xalqchil siyosatning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

**KORRUPSIYA OQIBATI
BILAN EMAS,
SABAB VA OMILLARI
BILAN KURASHISH LOZIM**

Ta'kidlash lozimki, mas'ul va mutasaddilar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Qolaversa, fuqarolar korrupsiya holatlariga duch kelgan vaziyatlarda to'g'ridan-to'g'ri Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga xabar berishi uchun "Eantikor.uz" maxsus dasturiy ta'minot, "1253" qisqa raqamli "Callmarkaz" faoliyati yo'lga qo'yildi. Masalan, 2022-2023-yillarda mazkur markazga 4 ming 300 dan ortiq murojaatlarning kelib tushgani ham jamiyatimizda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllanib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, davlat organlarining ochiq va shaffofligi, rahbarlarning jamoatchilik oldida hisobdorligi korrupsiyaning oldini olishdagi muhim preventiv chora-tadbirlardan biri hisoblanadi. Ular uchun "Ochiqlik indeksi" joriy etilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-lik to'g'risidagi qonunchilikni buzish" deya nomlangan 2157-modda bilan to'ldirildi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan korrupsiyaning poyini qirqish uchun byurokratiyani kamaytirish, davlat boshqaruvinii ixchamlashtirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilini qisqartirish kabi choralar ko'riyapti. Jumladan, "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilari soni 4 milliondan oshib, u orqali davlat idoralarining 130 dan ortiq axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida qariyb 450 turdagi xizmatlar onlayn shaklda ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi.

Korrupsiyaning oldini olishda uning oqibatlarini bilan emas, balki sabab va omillari bilan kurashish samaralidir. Zero, xalqimizda "Kasalni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan yaxshi" degan hikmatli naql bejizga aytilmagan. Shu bois davlat tash-

kilotlarida korrupsiyaning oldini olishning samarali mexanizmlarini yaratish maqsadida davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, hokimliklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Tahlillar korrupsiya xavf-xatarlari yuqori bo'lgan sohalarni alohida ajratib olib, ular-da ta'sirchan mexanizmlarni belgilash samarali ekanini ko'rsatdi. Bunga kapital qurilish, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat xaridlari tizimlarida "Korrupsiyasiz soha" va "Korrupsiyasiz hudud" kabi loyihalar amalga oshirilayotganini misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish, davlat xizmatiga tanlov asosida saralab olish hamda davlat xizmatchilarida korrupsiyaga toqatsiz munosabatni shakllantirish borasida ijobiy natijalarga erishildi. Barcha davlat organlari va tashkilotlarida ishga qabul qilish faqat ochiq tanlov asosida amalga oshirish bilan tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida e'firoga uzatish tartibi joriy etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlik aloqalari kengaytirilib, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish ishlari jadallashtirildi. Albatta, mazkur ijobiy o'zgarishlar mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'sishini ta'minlashi barobarida xalqaro reytinglar va indekslarda yuqorilashiga hamda yurtimiz nufuzini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Ayni paytda O'zbekiston "Jahon odil sudlov loyihasi" xalqaro tashkilotining huquq ustuvorligi indeksida, "Open dada inventory", "Trace bribery risk matrix" poraxorlik reytinglarida, Jahon boshqaruv sifati indikatorlari (WGI)da barqaror o'sishni qayd etib kelayotgan kam sonli davlatlardan biri hisoblanadi.

Shunga qaramay, korrupsiya muammosi mamlakatimizda haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Binobarin, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi islohotlarimizni izchil davom ettirib, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV vakillari va keng jamoatchilikni ushbu illatga qarshi kuchli jamoatchilik nazoratini o'rnatish orqali kurash olib borishga chaqirib qolamiz. Eng muhimi, bugun jamiyatimizda korrupsiyaga nisbatan uyg'onayotgan murosasizlik kayfiyatini, jurnalist va bloggerlardagi korrupsiyaga qarshi javogvar ruhini, davlat idoralari va mansabdor shaxslaridagi korrupsiya mamlakat kelajagiga g'ov sifatida qarashni yanada kuchaytirish shart.

Ulug'bek ABDURAHMONOV,
O'zbekiston Hakamlik sudlari
assotsiatsiyasi Toshkent shahar
hakamlik sudi raisi

E'OLONLAR

O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi qonunining 152-moddasiga muvofiq Jizzax viloyati adliya boshqarmasining 2024-yil 6-fevraldagi 26-um-son buyrug'iga asosan:

Mirzacho'l tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xaydarov Abdurafiq Rasulovichga berilgan (litsenziya GZ 0017, 21.04.2020-y.) xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va notarius maqomi 1 oy muddatga 2024-yil 12-fevraldan (agar bartaraf etilmasa, bartaraf etilguniga qadar to'xtatilsin.

Forish tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-

lanuvchi notarius Xolmatov Valistok Usmanovichga berilgan (GZ 0031, 05.09.2022-y.) xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va notarius maqomi 15 kun muddatga 2024-yil 8-fevraldan (agar bartaraf etilmasa, bartaraf etilguniga qadar to'xtatilsin.

Jizzax shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Boymatov Akmal Jo'rabo'yevichga berilgan (GZ 0024, 10.10.2020-y.) xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va notarius maqomi 15 kun muddatga 2024-yil 7-fevraldan (agar bartaraf etilmasa, bartaraf etilguniga qadar) to'xtatilsin.

8 ADLIYA FAXRIYLARI

**RO'ZMAT OG'A
SABOQLARI**

Ro'zmat Xudayberganov 1934-yilda Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanida tug'ilgan. 1959-yil Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlab, mehnat faoliyatini Xorazm viloyat ichki ishlar boshqarmasida tergovchilikdan boshlagan. Besh yil tergovchilik sirlarini obdon o'rganib, tajriba to'plagan huquqshunos 1963-yildan 1989-yilgacha ya'ni 26 yil mobaynida sud tizimida – Xorazm viloyat sudining sudyasi, Urganch shahar sudining sudyasi lavozimlarida samarali mehnat qildi. Mustaqillikkacha bo'lgan murakkab davrda qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida turli sinov va dovonlardan o'tdi.

Uning adliya organlaridagi faoliyati esa Xorazm viloyat adliya boshqarmasida katta maslahatchilikdan boshlangan. Keyinchalik bosh maslahatchi, hamda boshqarma boshlig'i o'rinbosari darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda bor bilimi va salohiyatini ishga solib, Vatanga xizmat qildi. Demokratik davlat qurish yo'lidagi ulug' maqsadlarga hamnafas bo'ldi.

Bugun keksalik gashtini surayotgan Ro'zmat og'a adolat yo'lga sarflangan

Mehnat insonni ulug'laydi. El-yurt o'rtasida obro'-e'tibor va qadr topish ham halol mehnatning sharofati. Mehnatni sharaf deb bilgan insonlarning hayotidan, bosib o'tgan yo'llaridan ibrat olsa arziydi. Bugungi qahramonlarimiz ham hayotda ana shunday yorqin iz qoldirayotgan, mehnatni ulug'lab, baxt topgan fidoiy insonlardir.

*Umir kitobidan
sahifalar*

40 yillik mehnat mundarijasini va-roqlarkan, o'tgan umridan shukronalik, topgan barcha hurmat va ehtirom uchun taqdirdan minnatdorlik hissini tuyadi.

Korxonada va tashkilotlarda, oliy o'quv dargohlarida, maktab va kollejlarda o'tadigan turli tadbirlarga faxriy mehmon sifatida taklif etilganida o'zining hayotdan olgan saboqlarini yoshlarga hikoya qilishdan g'ururlanadi.

Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan "Uch avlod uchrashuvi" tadbirida ham Ro'zmat og'a Xudayberganov yuristikning o'ziga xos iftixori bilan bir qatorda mashaqqatlari borligi haqida hikoya qilar ekan, ish faoliyatidagi unutilmas jarayonlar, qiyinchiliklar ko'z o'ngida gavdalanadi. Hayot zavqi bilan nafas olayotgan yoshlarga umr kitobidan dars o'tayotgandek o'vga toladi, yuksak mas'uliyatni his etadi.

Tabarruk 90 yoshni qarshi olgan Ro'zmat Xudayberganovga 100 yoshlarni ko'rish nasib etsin deymiz.

**KASBINI
O'ZGARTIRGAN
HAMSHIRA**

Sharqona talabu takliflarga nazar soladigan bo'lsak, ayolning vazifasi go'yoki oila xotirjamligi, farzandlar tarbiyasiga e'tibor berishdan iboratdek. Ammo ayolning oila va jamiyatdagi roli oshgan davrda yashayapmiz. Chunki har bir shaxs jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qilishi, davlatga, jamiyatga, odamlarga nafi tegishini

maqsad qilishi tabiiy.

Xorazmlik Gulchehra Yaqubova ham hayotda baxtini, jamiyatda o'z o'rnini topgan ayol. Dastlab Yangiariq tuman markaziy kasalxonasida hamshiralik qilgan ayol oradan yillar o'tib huquqshunoslik sohasini tanlaydi desa, balkim ishonish qiyindir. Ammo qahramonimiz o'z kasbini mutlaqo o'zgartirishga qaror qilib, huquqshunoslik sohasini tanlab, xato qilmadi.


Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini 1978-yilda tamomlab, Yangiariq tuman davlat notarial idorasining notariusi vazifasida 14 yil faoliyat yuritdi. Keyinchalik Yangiariq tuman sudi raisi lavozimiga tayinlandi, sud-huquq sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda ishtirok etishdek mas'uliyatli vazifa zimmasiga yuklandi. Mustaqil davlatimiz qonunlarining yangilanishiga, sud-huquq tizimida adolat ustuvorligini ta'minlashga har bir yuristning o'z o'rnini, o'z hisssasi borligini his etgan holda xizmat qildi. O'z kasbiga sodiq huquqshunos degan sharafli nomga munosib bo'ldi.

Yangiariq tumanida xususiy notariuslik faoliyati bilan shug'ullangan davrida ham fuqarolarga huquqiy yordam berishni o'z vazifasi deb bildi. Har qanday muammoli va murakkab vaziyatlarda qonunga tayanib ish ko'rib va odamlarning mushkulini oson qilishga harakat qildi.

Gulchehra opa uchun hayotning eng katta mezon yaxshilik. Yaxshiliklar hamisha hamrohingiz bo'lsin! Qutlug' yoshingizga yosh qo'shilsin!

Rasulbek IBRAGIMOV,
Xorazm viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi,
Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

XAYRLI LOYIHA

#ZIYO_ULASH chellenji davom etmoqda

Adliya vazirligi tomonidan boshlangan ma'rifiy tashabbus barcha hududlarda qo'llab quvvatlanmoqda. Vazirlik tomonidan respublika bo'yicha tuman va shaharlardagi mahallalarda yoshlar uchun kutubxonalar tashkil etish loyihasida Samarqand viloyat adliya boshqarmasi va tizim xodimlari ham faol ishtirok etishdi. Xususan, xayrli loyiha doirasida viloyatdagi adliya organlari xodimlari Prezident asarlari, o'zbek va jahon adabiyoti durdonalari, huquqiy va bolalar adabiyotiga oid 500 dan ortiq kitoblarni sovg'a qilishdi. Mazkur kitoblarni to'plami 16 ta tuman (shahar)-

lardagi 4-sektor hududida joylashgan mahalla fuqarolar yig'inlari binolarida tashkil etilgan mo'ljazgina kutubxonalaridan joy oldi.

Kutubxonalarda aholi, ayniqsa, yoshlar bo'sh vaqtini unumli o'tkazishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Viloyatdagi barcha yurt-doshlarimizni "Ziyo_ulash" chellenjida ishtirok etishga taklif qilamiz! Siz ham mahallangizga ziyo ulashib, kutubxonalar tashkil qilishda o'z hissangizni qo'shishingiz mumkin.

Vohid JUMANOV,
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

INSON
va qonunMUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2020-7897

**Bosh
muharrir**Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rino'yeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqrib
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.Korxonada nashri: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uyTiraj: 4125
Buyurtma - 465Topshirish vaqti - 19:00
Topshirildi - 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5